IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISH OMILLARI VA UNI BARTARAF ETISHDA IJTIMOIY ISHNING ROLI

Yodgorova Madina Xayrulloyevna
Samarqand Davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
"Ijtimoiy ish" yo`nalishi 2-bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23185929

Annotatsiya: Ushbu maqolada deviant xulq-atvor haqida ilmiy mulohaza bildirilgan. O'smirlarda deviant xulq-atvorning yuzaga kelishida oila muhiti, tengdoshlar guruhi, raqamli muhit, ijtimoiy-iqtisodiy hamda psixologik omillarning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, o'smirlar o'rtasida og'ishlarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning maqsadlari hamda deviant xulq-atvorning oldini olishda turli soha mutaxassislarining kompleks yondashuvi tahlil qilingan.
Kalit so`zlar: emotsional beqarorlik, kontent, kiberdeviantlik, trening, raqamli savodxonlik, ma'naviy immunitet.

ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ И РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ В ЕГО УСТРАНЕНИИ

Аннотация: В данной статье представлены научные рассуждения о девиантном поведении. Изучено влияние семейной среды, группы сверстников, цифровой среды, социально-экономических и психологических факторов на возникновение девиантного поведения у подростков. Также проанализированы цели социальной работы по профилактике девиаций среди подростков и комплексный подход специалистов различных сфер к предупреждению девиантного поведения.
Ключевые слова: эмоциональная нестабильность, контент, кибердевиантность, тренинг, цифровая грамотность, духовный иммунитет.

FACTORS CONTRIBUTING TO DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS AND THE ROLE OF SOCIAL WORK IN ADDRESSING IT

Abstract: This article presents a scientific review of deviant behavior. The influence of family environment, peer group, digital environment, socio-economic and psychological factors on the emergence of deviant behavior in adolescents is studied. The goals of social work to prevent deviance among adolescents and the integrated approach of specialists in various fields to prevent deviant behavior are also analyzed.
Keywords: emotional instability, content, cyberdeviance, training, digital literacy, spiritual immunity.

Har qanday xulqni baholash har doim qandaydir me'yor bilan qiyoslashga yo'naltiriladi va agar xulq me'yordan og'sa, u deviant deb ataladi. Deviant, og'uvchi xulq ko'plab fanlarning –

psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, psixiatriya, kriminologiya shu jumladan ijtimoiy ishning ham o'rganish predmeti hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor va xatti-harakatlar ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida ko'proq uchraydi. Ushbu davrda ularda turli gormonal o'zgarishlar kechadi hamda emotsional beqarorlik, shaxsiy xislatlar shakllanishi, o'z-o'zini tasdiqlashga bo'lgan kuchli ehtiyoj yuzaga keladi. O'zbekistonda 2026-yilning birinchi yarmida yoshlar bir yil avvalgiga nisbatan 25 foizga kam, voyaga yetmaganlar esa 4,5 foizga ko'proq jinoyat sodir etganligi bu mavzuning bugungi kunga kelib, naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.[1]

Italiyalik psixiatr Ch. Lombrozoning 1876-yilda chop etilgan "Jinoyatchi shaxs" asari, ijtimoiy deviantlikning "sababiyligini" yoqlab chiqadi. U o'z tadqiqiy kuzatishlari asosida xulq-atvor sababiylikka ega degan xulosaga keladi. Uning qarashlariga ko'ra, deviant harakatlar tasodifiy emas, balki "o'zaro aloqador sabablar zanjiri" natijasida yuzaga keladi.[2] Deviant xulq-atvorning yuzaga kelishida turli omillar sabab bo'lishi mumkin.

Oilaviy muhit. Oila - bu bolaning eng dastlabki ijtimoiylashadigan muhitidir. Bola ilk ijtimoiy ko'nikmalarni, xulq-atvor me'yorlarini va qadriyatlarni aynan oilada o'zlashtiradi. Agar oilada ota-onalar farzandlariga e'tiborli bo'lib, to'g'ri tarbiya berishsa, tashqi muhitdagi salbiy omillarning bolaga ta'sir o'tkazish xavfi kamayadi. Ilk bolalikdagi kechinmalar katta yoshli shaxsning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Masalan, Z. Freyd shaxsning asosiy poydevori juda erta, 5 yoshgacha bo'lgan davrda qo'yilishini ta'kidlagan.[3]

Tengdoshlar guruhining ta'siri. Tengdoshlar guruhining ta'siri ayniqsa o'smirlik davrida eng ko'p namoyon bo'ladi. Bu davrda o'smirlar, tengdoshlar guruhiga moslashishni ko'proq xohlaydilar. Deviant xulq-atvorga moyil tengdoshlar bilan doimiy muloqot qiladigan o'smirlar esa bunday xulqni o'zlashtirishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Raqamli muhit ta'siri. Hozirgi davrda onlayn o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi bir kontentlar deviant xulq-atvorni yuzaga keltirmoqda. Ekran ortidan janjalashish, so'kish, haqoratlash bu ham deviantlikning yangi bir turini – kiberdeviantlikni keltirib chiqarmoqda. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil trend va chellenjlar ko'payib, mashhurlik yoki layk evaziga hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan videolarni tasvirga olish va tarqatish ko'paymoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Deviant xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ham o'rni katta. Iqtisodiy jihatdan qiyinchiliklarga duch kelgan oilalar, past daromadli oilalar va kam ta'minlangan oilalardagi bolalarning deviant xulq-atvorga moyilligi yuqori bo'ladi. Bunday holatlarda ota-onalar ko'p vaqtlarini ishga sarflaganliklari yoki xorijga ishlagani ketganligi bois bolalar tarbiyasida ota-onalarning e'tibori va nazorati yetishmay qoladi.

Psixologik omillar. Deviant xulq-atvorning yuzaga kelishida shaxsning ichki psixologik xususiyatlari va emotsional holati muhim o'rin tutadi. O'smirlik davriga xos bo'lgan emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik (agressiya), o'z-o'zini tuta olmaslik (impulsivlik) hamda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi shaxsni deviant harakatlarga undovchi ichki omillardandir. Shuningdek, o'smirda empatiya va o'z qilmishlari uchun mas'uliyat hissining yetarlicha shakllanmagani ijtimoiy me'yorlarni osongina buzishiga zamin yaratadi.

O'smirlar o'rtasida og'ishlarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning maqsadlari: ijtimoiy moslashish yoki tiklanish uchun motivatsiyani shakllantirish; shaxsiy o'zgarishlarni

rag'batlantirish; deviant xulq-atvorning o'ziga xos shakllarini tuzatish; shaxsiy o'zgarishlar yoki tiklanish uchun qulay ijtimoiy-psixologik sharoitlar yaratishdan iborat.[4]

O'smirdagi deviant xulqni bartaraf etishda nafaqat ijtimoiy xodim balki maktabdagi milliy gvardiya xodimi, o'qituvchisi, psixologi hamda o'smirning ota-onasi birgalikda faoliyat yuritishi lozim.

O'smirlarda deviant xulqning oldini olishda quyidagilarni tavsiya qilgan bo'lar edim:

- o'smirlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkillashtirish. Har bir o'quvchining o'z qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib uni turli fan to'garaklari yoki sport, musiqa to'garaklariga jalb qilish. Maktablarda bepul to'garaklarni tashkillashtirish;
- o'quvchi va psixolog o'rtasidagi ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish. Maktab psixologi tomonidan guruhlarda ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatish bo'yicha trening o'tkazish vositasidan foydalanish. Treningda o'smirlarda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: ba'zilarning salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish, kimdir ta'sir, bosim o'tkazayotganida yo'q deyishni ham bilish va stress holatlarida o'zini munosib tuta olish;
- kelajakni deviant xulq bilan o'tkazishning real oqibatlarini namoyon etuvchi suhbatlar yoki telefilmlardan foydalanish o'smirlarda kerakli, to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini tarbiyalaydi;
- pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, o'qituvchilarda yuqori pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- ota-onalarni ta'lim faoliyatida ishtirok etishga jalb qilish. Maktab psixologi tomonidan ota-onalarga farzandlarini tarbiyalashda muhim maslahatlar va tavsiyalardan iborat treninglar tashkillashtirish va ota-onalar yig'ilishlari o'tkazish orqali ota-onalarning tarbiyaviy rolini oshirish;
- kam ta'minlangan hamda ota-onasi mehnat migratsiyasida bo'lgan "xavf guruhi"dagi oilalar bilan ijtimoiy xodimlarning doimiy profilaktik ishlarini yo'lga qo'yish;
- raqamli savodxonlikni oshirish. Maktabda o'quvchilarga internetdan foydalanganda odob-axloq va huquqiy me'yorlarga rioya qilishni, feyk xabarlarni saralay olish va ijtimoiy tarmoqlardagi nosog'lom kontentlarni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'smir bilan ijtimoiy ish xodimi hamkorlikda faoliyat olib borishi uchun oradagi munosabat halollikka, javobgarlikka, mas'uliyatlilikka, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hurmat qilishga asoslangan bo'lishi lozim.

Xulosa. Yoshlar – yangi O'zbekiston bunyodkoridir! Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar holatiga ko'ra 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni jami aholining 25,7 foizini tashkil etganligini qayd etgan.[5] Bu kabi ko'rsatkich bugungi kunda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishni, ularning muammolarini o'z vaqtida hal etishni talab etmoqda. Deviant xulq-atvorga moyil o'smirlar bilan ishlashda oila-maktab-mahalla tizimini keng yo'lga qo'yish, turli soha mutaxassislari faoliyatida kompleks yondashuvni ta'minlash zarur. Shu bilan birga mutaxassislar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi va hamkorlik faoliyatini rivojlantirish talab etiladi. Shuningdek, ota-onalar farzandlarining qiziqishidan kelib chiqib ularning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishlari, ularda deviant xulqqa qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishlari darkor. Zero, tarbiya - avvalo oiladan boshlanadi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daryo.uz axborot portali. Yoshlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi jinoyatchilik statistikasi (2026-yil 15-iyul). https://daryo.uz/2026/07/15/
2. **Yusupov R. K.** Ijtimoiy ishga kirish. Samarqand 2020. 212-bet.
3. **Ganieva M. X. Kayumov Q. N. Sherov M. B.** Ijtimoiy ishga kirish. Toshkent – 2020. 172-bet.
4. **Isoqjon Negmatov.** Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Samarqand SamDU Tahririy nashriyoti, 2024. 577-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/